

BUGUNGI KUNDA MOSHNING AHAMIYATI

Mamirjonova Muxabbat Begijon qizi

Jo'rayeva Muxlisa Doniyor qizi

Musayeva Ulbo'lsin Mirzakarim qizi

Toshkent davlat agrar universiteti talabalari

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etayotgan dukkakli-don ekinlaridan biri — mosh o'simligining ahamiyati yoritilgan. Global iqlim o'zgarishlari sharoitida qishloq xo'jaligida takroriy ekin sifatida mosh yetishtirishning iqtisodiy va agroekologik ustunliklari tahlil qilingan. Maqolada moshning kelib chiqishi, tarqalishi, biologik va morfologik xususiyatlari, hosildorligi, oqsilga boyligi hamda tuproq unumdorligini oshirishdagi roli ilmiy manbalar asosida bayon etilgan. Shuningdek, respublikamiz sharoitida mosh yetishtirish imkoniyatlari va uning oziq-ovqat hamda chorvachilik sohasidagi ahamiyati keng yoritilgan.

Kalit so'zlar: mosh, dukkakli-don ekinlari, takroriy ekin, oqsil, biologik azot, tuproq unumdorligi, oziq-ovqat xavfsizligi.

Bugungi kunda dunyoning barcha davlatlarida oziq-ovqat ta'minoti masalasi ustuvor vazifalardan biriga aylangan. Xususan, sayyoramizda ro'y berayotgan global isish jarayoni tufayli ba'zi xududlarda suv toshqinlari, ba'zi xududlarda esa xaddan ziyod suv tanqisligi yuz berayotganligi, turli tabiiy ofatlarning ko'payishi, birinchi navbatda qishloq xo'jaligi sohasiga o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatmoqda.

Dunyoda aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan muntazam ta'minlash borasida respublikamizda qulay tuproq-iqlim sharoitlaridan kelib chiqqan holda har yili boshloqli don ekinlaridan bo'shaydigan bir milliondan ortiq sug'oriladigan maydonlarida 120-130 kun davomida takroriy ekin sifatida makkajo'xori, mosh, soya, sholi, tariq, kunjut, em-xashak ekinlari, kartoshka va turli xil sabzavotlar ekilib, bir yilda ikki martagacha yuqori va sifatli hosil etishtirish imkoniyatlari mavjud.

Hozirgi vaqtda yurtimizda donli, dukkakli, moyli ekinlarga katta e'tibor qaratilib ekin maydonlari kengaytirilmoqda.

Dexqonchilikni rivojlantirish va erdan unumli foydalanish uchun katta imkoniyatlar ochildi. Bugungi kunda eng asosiy muammolardan biri bu oqsil masalasi, ya'ni insoniyatni oqsilga bo'lgan talabini qondirish. Bu masalani echishda dukkakli don ekinlaridan mosh o'simligining ahamiyati katta. Moshning ahamiyati, kelib chiqishi va tarqalishi. Respublikamiz sharoitida kuzgi bug'doydan 60-70 s/ga, takroriy ekin sifatida etishtiriladigan mosh ekinidan esa 15-20 s/ga don hosili etishtirilib, bir mavsum davomida etishtiriladigan don hosilini 75-90 s/ga etkazish imkoniyatlari mavjud.

Er yuzida dukkakli-don ekinlari 135 mln.gektar maydonga ekiladi. Dukkakli-don ekinlari orasida mosh ekiladigan maydon hajmi jihatidan jahonda soyadan (dunyo bo'yicha soya maydoni 74 mln gektaga yaqin) keyin ikkinchi o'rin (25 mln gektaga yaqin) ni egallab, uchinchi o'rinda no'xot (dunyoda jami 10 mln gektaga yaqin) turadi. Markaziy

Osiyo va Kavkazorti respublikalarida moshdan ozik-ovkat sanoatida keng foydalaniladi. Moshdan tayyorlangan un makaronga ko'shilsa uning to'yimliliği yanada ortadi. Mosh dukkakli-don ekinlar guruxiga mansub bo'lib, donida ko'p mikdorda 24-28 % oksil to'planadi. Undan ozik-ovkat sanoati bilan birga chorva xayvonlari uchun to'yimli em-xashak xam etishtirish mumkin. SHuningdek moshning ildizlarida tuganak bakteriya rivojlanib, erkin azotni o'zlashtirib, tuprok unumdorligini oshiradi. Ilmiy manbalardan ma'lum bo'lishicha, mosh vegetatsiya davri davomida tuproqda 50-100 kg\ga biologik azot va organik moddalar to'plab, erning tabiiy unumdorligini oshirishi bilan birga oqsil va vitaminlarga boy bo'lgan shifobaxsh don beradigan ekindir.

Moshning kelib chiqishi Xindiston bilan bog'liq. Hozirgi paytda mosh juda ko'p mamlakatlarda ekiladi. Chunonchi, O'zbekiston, Turkmaniston, Ozarbayjon, Gurjiston, Xitoy, Koreya, Yaponiya, Hindiston, Pokiston, Misr, Efiopiya va boshqa davlatlarda katta maydonlarda etishtiriladi. Qishloq xo'jaligi vazirligidan olingan ma'lumotlarga ko'ra, Respublikamizda har yili takroriy ekin sifatida 23-27 ming gektardan ortiq maydonlarda mosh etishtiriladi.

Mosh (*Phaselus aureus* Piper.)-bir yillik o'tsimon o'simlik. Ildizi. O'simlik o'q ildiz bo'lib, baquvvat rivojlangan. U tuproqda 110-140 smgacha chuqurlikda o'sadi, ammo ildizning asosiy qismi xaydalma qatlamda tarqalgan.Poyasi. Poyasi dumaloq ko'rinsada, qirrali.

O'sish davrining boshidan shonalashgacha tik, so'ng chirmashib yoki yarim yotib o'sadi. Bo'yi 30-130 sm gacha bo'lib, o'rtacha 50-60 sm, yaxshi shoxlanadi. Yon shohlar yoyiq yoki tarvaqaylagan holda bo'ladi. Bargi. Barglari murakkab uchtalik (uch qo'shaloq), 12-17 smlik barg bandida joylashadi, mayda qoramtir sarg'ish tuklar bilan qoplangan, tukchalarning rangi, qalin siyrakligi moshning nav belgisi hisoblanadi, barg bandlari yirik va uzun.

Barg bandi va bargining orqa tomonida tuklar ko'p. Moshning barglari tashqi ko'rinishidan loviyaning barlariga o'xshaydi. To'pguli. Gullari yirik, binafsha va sariq ranglarda. Guli to'p bo'lib joylashgan. Gulining 10-20 tasi bir tupga birikkan. SHingilda gulning bir qismi rivojlanmay qurib qoladi.

Mosh umuman barcha dukkakli ekinlarning gullari o'zidan changlanuvchan bo'lib, ularning guli asosan hali ochilmasdan shonani ichidalik holida changlanadi, gulga aylangan gulni tojibarglarini yulib ochib ko'rilsa uning ichida shakllannib ulgurgan yoki dukkaklari kuzatiladi.

Mevasi. Silindrsimon shakllik uchi uchlik, to'mtoq ko'rinishlik, navlariga qarab har xil darajada tuklangan, pishib etilganda to'q qo'ng'ir, qora ranglik, uzunligi 8.5 14.5 sm gacha bo'lgan dukkak.

Dukkaklari chatnaydi, ammo yangidan introduksiyalash asosida yaratilayotgan poyasi tik o'suvchi navlarning o'simliklaridagi dukkaklarni ichki qismida oq momiqsimon pux mavjud bo'lib, bu dukkaklar chantnamaydi donlari to'kilmaydi, ularni po'sti qattiq (pergament qobig'i) qalinligi bilan xarakterlanadi.

Har bir o'simlikda o'rtacha 46-78 donagacha dukkaklar bo'lishi mumkin. Har bir dukkakda o'rtacha 8-12 donagacha mosh urug'i joylashadi.

Urug'lari ko'pincha silindrsimon, yumaloq shakllik, to'q yashil, och yashil, qo'ng'ir yashil, och sariq, qora ranglik yaltiroq po'stli, ba'zan qalin tukli, urug' pallalik don bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Xalikov B.M., Negmatova S.T. Mosh/ Monografiya. – Toshkent: Navro'z, 2020. – 188 b.
2. Mavlyanova R.F., Sulaymonov B.A., Boltaev B.S., Mansurov X.G., Kenjabaev Sh.M. Mosh yetishtirish texnologiyasi/ Tavsianoma. – Toshkent: Navro'z, 2018. – 24 b.
3. Otaboeva H.N. O'simlikshunoslik. – Toshkent: Mehnat, 2000. – 254 b.
4. Вавилов П.П. Растениеводство. – М.; Агропромиздат, 1986. – 512 с. 5. Боднер Г.В., Лавриненко Г.Т. Зернобобовые культуры. – М.: Колос, 1977. – 257 с.